



QISHLOQ XO'JALIGIDA BILIM VA INNOVATSIYALAR MILLIY MARKAZI

BUYRUQ

2023 y. "14" mart

7 -son

Toshkent vil.

Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va uning tizimidagi tashkilot va muassasalarda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarini yaratish hamda amaliyotga tatbiq etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son qarori hamda 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qarori ijrosini ta'minlash, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va uning tizimidagi muassasalarda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish samaradorligini yanada oshirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 28-fevraldagi "Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishda tizimli yondashuvni joriy etish to'g'risida"gi 31-sonli buyrug'i (keyingi o'rinlarda "Buyruq") rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

Buyruq bilan:

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi;

Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarini yaratish hamda amaliyotga tatbiq etish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi (Yo'l xaritasi) tasdiqlanganligi ma'lumot va xizmat faoliyatida foydalanish uchun qabul qilinsin.

2. Yo'l xaritasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va uning tizimidagi tashkilot va muassasalarda 2023-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarini yaratish hamda amaliyotga tatbiq etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ichki audit va komplayens nazorat bo'yicha bosh mutaxassis (B.Tayirov) **har chorak yakuni bilan** chora-tadbirlar rejasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasi yuzasidan shakllantirilgan ma'lumotlarni vazirlikning Ichki audit, komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurash boshqarmasiga taqdim etib borsin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Bosh direktor



A.Turayev